

MEVA VA UZUMCHILIKNING XALQ XO'JALIGIDAGI AHAMIYATI

*Maxsudova Gulnora Muxammadjonovna*

*Ekologiya kafedrasi o'qituvchisi.*

*Qurolova Feruzaxon.*

*Boynazarova Mohinur*

*Ekologiya va atrof- muhit muhofazasi yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** Mevachilik qishloq xo'jaligining meva, uzum va rezavor mevalarini yetishtiradigan muhim sohasi. Aholining meva va meva mahsulotlariga, sanoatning meva xom ashvosiga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

**Аннотация:** Плодоводство – важная отрасль сельского хозяйства, занимающаяся выращиванием фруктов, винограда и ягод. Он служит для удовлетворения потребностей населения в фруктах и плодово-ягодной продукции, плодовом сырье для промышленности.

**Abstract:** Fruit growing is an important branch of agriculture that grows fruits, grapes and berries. It serves to meet the needs of the population for fruits and fruit products, and fruit raw materials for the industry.

**Kalit so'zlar:** uzumchilik, meva, rezavor meva, tok o'simliklari, bogdorchilik, vitaminlar, organik kislota, mineral moddalar.

**Ключевые слова:** виноградарство, плоды, ягоды, виноград, садоводство, витамины, органические кислоты, минеральные вещества.

**Key words:** viticulture, fruit, berry, vine plants, horticulture, vitamins, organic acid, mineral substances.

**Kirish:** O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini belgilovchi va katta daromad keltiradigan asosiy sohalardan biri bog'dorchilik hisoblanadi. Bu sohani ilmiy asosda rivojlantirmasdan turib, aholi va sanoatimizning meva mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish mumkin emas. Shunday ekan, qishloq xo'jalik sohalarini, shu jumladan, bog'dorchilikni chuqur o'rganib chiqib, qanday muammolar sodir bo'lganligini aniqlab olish va ularning ijobjiy yechimini topishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasing birinchi prezidenti I.A. Karimov O'zbekiston Fanlar akademiyasining umumiyligi yig'ilishida «Dehqonchilik va umuman ishlab chiqarishni fan negizida, ayniqsa, fundamental fan asosida qayta qurollantirmas ekanmiz, mamlakat taraqqiyotini tezlashtirishimiz amri mahol» deb bejiz aytmag'an edilar. Demak, qishloq xo'jalik sohasida, shu jumladan bog'dorchilik sohasini rivojlantirish uchun o'z navbatida o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida bog'dorchilik bo'yicha yetuk mutaxassislar tayyorlash jarayoniga zarur o'zgarishlar kiritish zarur.

Respublikamiz aholisi moddiy farovonligi oshishi bilan ularning meva mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlari ham oshib bormoqda, chunki mevalar (ho'l va quritilgan holatlarda) inson salomatligi uchun zarur bo'lgan to'yimli, mazali va shifobaxsh oziqdir. Shu bois yil davomida aholining mevaga bo'lgan talabini ta'minlash bu — davr talabidir. Bog'dorchilik qishloq xo'jaligi tarmog'i bo'lib, fan sifatida meva daraxtlarining morfologik tuzilishi, o'sishi, rivojlanishi, ko'paytirish usullari, hosil berish qonuniyatlari hamda parvarishlash texnologiyasini o'rgatadi. Yuqorida ko'rsatilgan bilimlarning egallanishi agronom, fermer mutaxassisi bo'lib shakllanishlarida katta ahamiyat kasb etadi va agrotexnik chora-tadbirlarni yuqori darajada va o'z vaqtida o'tkazishga yordam beradi.

Farg'ona davlat universitetida bog'dorchilik va uzumchilik yo'nalishlari ochilgan bo'lib, ko'plab yoshlar bog'dorchilik va uzumchilik bo'yicha cguruq bikim va ko'nikmaga ega bo'lib borishmoqda va vu bilimlarini ish faoliyatlarida qo'llamoqdalar.

Bog'dorchilik sohasi — biologiya, biotexnologiya, tuproq-shunoslik, o'simliklar fiziologiyasi, melioratsiya, agrokimyo va umumiylar dehqonchilik tarmoqlari bilan chambarchas bog'liqdir. Meva daraxtlari va tok tuplarini parvarishlash texnologiyasi shu fanlar bilan aloqadordir.

Uzumchilik «mamlakatimiz qishloq xo'jaligining muhim tarmoqlaridan biri. Markaziy Osiyo respublikalarida, xususan, O'zbekistonda uning roli, ayniqsa, katta. O'zbekistonning qulay tabiiy sharoiti bu yerda xilma-xil nav uzum yetishtirishga imkon beradi. Tok qimmatbaho o'simlik hisoblanadi. Uning mevalari juda mazali va foydalidir. Uzum mevasining tarkibida 15—30 foiz shakar, sovitilganda esa 40—50 foizgacha organik kislotalar, pektin,- oshlovchi, xushboy hidli va bo'yoq moddalar, o'simlik yelimi, bir qancha fermentlar A, B, C vitaminlar va mineral tuzlar- bo'ladi. Uzum tarkibida yaxshi o'zlashtiriladigan shakar (glyukoza va fruktoza), organik-kislotalar va boshqa moddalar bo'lishi va tarkibiy qismlarining bir-biriga mos ravishda birikkanligi tufayli ular davolash xususiyatiga ega. Uzum mevalaridan har xil maqsadlar uchun foydalilanadi. Uzum yangiligicha ko'p ishlatiladi. O'zbekiston tuproq-iqlim sharoitida undan iyun oyidan boshlab noyabrgacha foydalilanadi. Tashishga chidamliligi va muzlatgichlarda hamda maxsus omborlarda uzoq saqlani shi tufayli uzum yangiligicha kelgusi yilning may oyida ham istemol qilinadi. Uzum oziq-ovqat va vino sanoati uchun juda qimmatbaho xomashyodir. Yangi uzumdan murabbo, kompot, marinadlar tayyorlanadi. Uzum suvi tegishlicha tayyorlanganda eng yaxshi to'yimli parhez va shifobahsh mahsulotlar sifatida ko'p oylar davomida saqlanishi mumkin. Uzumdan quritilgan qimmatbaho mahsulotlar: urug'li xoraki navlaridan mayiz, urugsiz navlardan kishmish, juda mayda (6—9 mm) urug'siz qora mevali korinka nav uzumdan quritilgan korinka olinadi. O'zbekistonda koplab kishmish, mayiz esa kamroq tayyorla-nadi. Korinka butunlay tayyorlanmaydi. Uzumdan har xil vinolar jumladan, shampansosi tayyorlanadi. Iste'mol qilinadigan vinolardan uzum

sirkasi tayyorlanadi. Uzum turidan spirt, vino kislotasi, tanin moddasi, uzum moyi, bo'yqlar, yoritgich gaz va boshqalar olinadi.

**Xulosa:** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-martdag'i 101-F-son Farmoyishiga asosan respublika hududlarida mevachilik va uzumchilikning rivojlantirish bo'yicha qator ishlar olib borilmoqda. Xususan Farg'ona viloyatining Oltiariq tumani o'zining uzum bog'lari, navlari bilan tanilgan. Oltiariq tumanida deyarli barcha turdag'i uzum navlari yetishtirilib eksport qilinmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Халматова, Ш., & Махсудова, Г. (2022). ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, 1(5), 356-362.
2. Hamidov, G., Makhsudov, K., & Makhsudova, G. (2021, August). ON THE PROCESS OF NECTAR SEPARATION OF MEDIUM-FIBER COTTON VARIETIES IN THE FERGANA VALLEY: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1365>. In *RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES* (No. 18.06).
3. Hamidov, G., Makhsudov, K., & Makhsudova, G. (2021, July). ON THE PROCESS OF NECTAR SEPARATION OF MEDIUM-FIBER COTTON VARIETIES IN THE FERGANA VALLEY. In *Конференции*.
4. Ahmedova, D. M., & Maksudova, G. M. (2020). THE ROLE OF MOISTURE AS AN ECOLOGICAL FACTOR IN GROWTH OF COTTON PLANTS. *Theoretical & Applied Science*, (8), 73-76.
5. Akhmedova, D. M., & Maxsudova, M. G. (2021). The role of moisture as an ecological factor in growth of cotton plants. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(1), 1093-1098.
6. Ahmedova, D. M., & Maksudova, G. M. (2020). Morphology of the pollen of some cotton species and hybrids. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 05 (85), 84-87.
7. Abdullayeva, M. T. L., & Maqsudova, G. M. (2021). EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYADA XORIJIY TAJRIBA. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 159-165.
8. To'lanovna, A. M., & Maxammadjonovna, M. G. (2021). EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYADA XORIJIY TAJRIBA.
9. Ahmedova, D. M., & Maksudova, G. M. (2020). THE ROLE OF MOISTURE AS AN ECOLOGICAL FACTOR IN GROWTH OF COTTON PLANTS. *Theoretical & Applied Science*, (8), 73-76.
10. Maxammadjonovna, M. G. (2022). ICHIMLIK SUVINING SANITAR HOLATI YAXSHILASH. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, 1(5), 367-371.

10. Ahmedova, D. M., & Maksudova, G. M. (2020). МОРФОЛОГИЯ ПЫЛЬЦЫ НЕКОТОРЫХ ВИДОВ И ГИБРИДОВ ХЛОПЧАТНИКА. *Theoretical & Applied Science*, (5), 84-87.
11. Xalmatova, S. M., & Maxsudova, G. (2022). SHAXS MA'NAVIY ONGINI SHAKLLASHTIRISHDA OILANING AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 677-680.
12. A.Musurmonova, X. Ibragimov,O.Jamoldinova, S.Yoldasheva, A.Jumayev, F.Babashev, P.Isamova, G.Salohiddinova, K.Todjiboyeva.TOSHKENT-2020. "UMUMIY PEDAGIGIKA" TOSHKENT-2020.
- 13.OILA PEDAGOGIKASI O.Husanboyeva, D.Xoliqov, Rocc Kemibell, Sh. Toshpolatova, M.Sh. Nurmatona, X.J. Jabborova, N.Jamilova, Sh. Egamnazarova, N.Qaytumova, M.M. Pirmuhammedova, L.A. Kulay, Sh.Sodiqova, B.Xojimurodova, M.A. Rasulxojayeva, R.Azezova.
14. Махсудов, Ш. С. (2022). Ўзбекистонда эркин иқтисодий зоналарни ривожлантиришнинг самарали йўналишлари.
15. Махсудов, Ш. С. (2022). ЎЗБЕКИСТОНДА ЭРКИН ИҚТИСОДИЙ ЗОНАЛАРНИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШРИШИ ВА РИВОЖЛАНТИРИШ. *Gospodarka i Innowacje.*, 24, 993-995
16. O'zbekiston Respublikasining Oliy majlis qonunlar tuplami.1,2 qism 1998.
17. A.A.Ro'bakov,S.A.Ostrouxova - «O'bekiston mevachiligi» Т.: «O'qituvchi», 1981.
18. A.A.Ro'bakov, S.A.Ostrouxova - «Plodovodstvo O'zbekistana». Т.: « O'qituvchi » ,1972.